

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA  
UNING BUGUNGI KUNDAGI ZARURIYATI.

*D.R.Qosimova, M.A.Akbarova*

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi  
O'zbekiston.Marg'ilon sh.*

**O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM IMKONIYATLARI.**

Amerikalik yozuvchi Rey Bredberi "Men kutubxonada va mutlaqo bepul ta'lim olganman" deb yozgan edi. Bugunga kelib esa o'qish jarayonlari takomillashib turli internet resurslar hamda onlayn kurslar tobora ommalashmoqda. Turli axborotlar "bozori"da yangilashib qolmaslik uchun sifatli xizmatlardan foydalanish zarur. O'zbekistonda so'nggi yillarga kelib bu yo'nalish rivojlanmoqda.

Endi uydan chiqmay turib sifatli ta'limni egallash yangilik emas. Masofaviy ta'lim ma'lumotlaridan o'quv kursining saytida ro'yxatdan o'tgach foydalanish mumkin. Har bir dars tinglovchining bilimni egallaganini tekshiruvchi alohida misollar, sinovlardan iborat bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan turli multimedia vositalari yordamida fikr almashish ham mumkin. Kursni muvaffaqiyatli yakunlashda esa o'quvchilar imtixon topshirib maxsus sertifikatni qo'lga kiritish imkoniga ega.



Hozirgacha bir qator mahalliy Oliy o'quv yurtlari va tashkilotlarda masofaviy o'qitish amalga oshirilgan. Masalan, Respublika «O'zbekturizm» ilmiy-o'quv konsalting markazida, SamDTI, ToshDPI Termiz filialida yo'lga qo'yilgan masofaviy o'qitish kurslarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Onlayn ravishda bilim olishni, masofadan turib o'qishni istaganlar uchun turli xildagi platformalar muntazir. Masalan, YouTube platformasidagi o'zbek tilidagi video darslar ma'ruzalar orqali amaliy ko'nikmalarni ham mustahkamlab borishni niyat qilganlar uchun foydali. Sababi, bunday video darsliklarda tomoshabin ekranida so'z borilayotgan mavzuning batafsil bayoni tasvir orqali beriladi. Masalan, psd.uz saytining YouTube'dagi sahifasida Photoshop grafik muharriri haqida bir nechta videodarslar tayyorlangan bo'lib, ularning davomiyligi asosan 2-3 daqiqadan iborat. Bu esa mavzuning bo'lib alohida o'rganilishini hamda uni yaxshi egallash imkonini beradi. Ammo materiallar faqat boshlang'ich malakaga ega kishilar uchun tayyorlangan va videodarsliklar soni juda kam. Yana bir boshqa Code Leader nomli sahifa tomonidan berib boriladigan Web dasturlash asoslari bo'yicha darslar o'zbek tilida dasturlash bo'yicha bilimlarini boyitmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan. YouTube'da turli soha bo'yicha bunday darslarni topish mumkin.

Bundan tashqari, interaktivlikni o'zida namoyish etuvchi yordam.uz saytida foydalanuvchilar dasturlash bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni o'zbek tilida yozib qoldirishlari mumkin. Sayt mualliflari bo'lgan mutaxassislar esa mazkur savollarga javob yozib qoldiradilar. Bu platforma tuzilishi bilan forumga ham o'xshash, chunki mualliflardan tashqari ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar ham berilgan savolga javob qoldirishlari mumkin.

Umuman olganda bugun axborot tarqatishda foydalanuvchilar orasida Telegram-kanallarining salmog'i yuqori. Eng qulay va tezkor kommunikatsiya vositasi bo'lgan Telegramda ham masofadan turib bilim olish mumkin. Til o'rganish, pazandachilik va boshqa fanlarga ixtisoslashgan kanallarga qo'yiladigan turli formatdagi ma'lumotlar

istalgan vaqtda qo'l ostingizda bo'ladi. Bunday o'qishning yagona kamchiligi kanallarga yuklanadigan reklamalarning ko'p bo'lishidir. Shunday bo'lishiga qaramay bugunga kelib Telegram kanallarini faqat bir tomonlama axborot uzatuvchi deb bo'lmaydi. Uning ovoz berish imkoniyati sabab auditoriya ham o'z fikrini bildirib ovoz berishi mumkin. Misol uchun, dasturlash haqidagi blog, videodarslar, tarjima va maqolalar berib boruvchi mayoq.uz kanali ushbu elementdan samarali foydalanadi.



### **Masofadan o'qitish quyidagi afzalliklarga ega.**

- Dars jadvalining qulayligi;
  - Istalgan joydan turib ta'limdan foydalanish manzillari;
  - Ta'lim, o'quvchilar yangi bilimlarni tushunishlari tempida o'tkaziladi;
  - Qulay o'quv reja;
  - Ma'lumotlar bazasining to'planishi, ya'ni oldingi o'qigan talabalar bilimlarini to'plash va undan foydalanish imkoniyati.
  - Multimediya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.
  - Malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali masofaviy ta'limga qo'shilish bu boradagi yangiliklardan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lish, o'z natijalarini do'stlar bilan bo'lishish hamda do'stlarining ham yutuqlari bilan tanishish imkonini beradi. Ba'zi tinglovchilar blog yuritish bilan o'z fikrlarini bo'lishib boradilar. Bu esa obunachilar orasida masofaviy ta'limning ommalashuviga hamda boshqa tinglovchilar uchun o'z bilimlarini mustahkamlashga ko'mak beradi.

## SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD

Mashhur xorij universitetlari ham internet orqali o'z masofaviy kurslarini taqdim etadilar. Bunda mazkur kurslarni tugatgan kishilar ushbu OTMning diplomiga ega bo'lmasa-da, professorlar, Nobel mukofoti laureatlarining ma'ruzalarini o'rganishlari mumkin bo'ladi. Bunday ta'lim turi an'anaviy ta'limga qaraganda bir necha barobar arzonroq bo'lishini ham ta'kidlab o'tish lozim.



Masofadan bilim olishni kengaytirish va uni hamma uchun ochiq qilish bugun yo'nalishdagi asosiy jihatlardan biri.